



BUXGALTERIYA HISOBINING MILLIY STANDARTLARIDAN MILLIY HISOBNING XALQARO STANDARTLARIGA O'TISH: O'ZBEKISTON AMALIYOTI VA JANUBIY KOREYA TAJRIBASI

Xikmatova Husnora

Toshkent davlat agrar universiteti

ORCID: 0009-0004-9227-0469

husnora.sheraliyeva@gmail.com

Eshpo'latov Bahrom

Toshkent davlat agrar universiteti

ORCID: 0009-0001-5895-7855

eshpolatovbahrom443@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida buxgalteriya hisobining milliy standartlaridan (BXMS) moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o'tishning strategik ahamiyati va iqtisodiy afzalliklari tahlil qilingan. Tadqiqotda qiyosiy tahlil usuli qo'llanilib, BXMS va MHXS o'rtasidagi asosiy konseptual farqlar, xususan aktivlarni haqqoniy qiymat asosida baholash va moliyaviy shaffoflikni ta'minlash masalalari o'rganilgan. Shuningdek, Janubiy Koreyaning K-IFRS tizimiga o'tish tajribasi asosida uning fond bozori va investitsiya oqimlariga ta'siri baholangan.

Kalit so'zlar: BXMS, IFRS (MHXS), transformatsiya, integratsiya, shaffoflik, haqqoniy qiymat, investitsiyalar, kapital bozori, K-IFRS, qiyosiy tahlil, moliyaviy hisobot, metodologiya.

ПЕРЕХОД ОТ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА К МЕЖДУНАРОДНЫМ СТАНДАРТАМ: ПРАКТИКА УЗБЕКИСТАНА И ОПЫТ ЮЖНОЙ КОРЕИ

Хикматова Хуснора

Ташкентский государственный аграрный университет

Эшпулатов Бахром

Ташкентский государственный аграрный университет

Аннотация. В данной статье анализируется стратегическая значимость и экономические преимущества перехода от национальных стандартов бухгалтерского учета (НСБУ) к международным стандартам финансовой отчетности (МСФО) в условиях модернизации экономики Узбекистана. В исследовании применён сравнительный метод анализа, в рамках которого изучены концептуальные различия между НСБУ и МСФО, в частности вопросы оценки активов по справедливой стоимости и обеспечения финансовой прозрачности. Также рассмотрен опыт перехода Южной Кореи на систему K-IFRS и оценено его влияние на фондовый рынок и инвестиционные потоки.

Ключевые слова: НСБУ, IFRS (МСФО), трансформация, интеграция, прозрачность, справедливая стоимость, инвестиции, фондовый рынок, K-IFRS, сравнительный анализ, финансовая отчетность, методология.

TRANSITION FROM NATIONAL ACCOUNTING STANDARDS TO INTERNATIONAL STANDARDS: PRACTICE OF UZBEKISTAN AND EXPERIENCE OF SOUTH KOREA

Khikmatova Khusnora

Tashkent State Agrarian University

Eshpulatov Bakhrom

Tashkent State Agrarian University

Abstract. *This article analyzes the strategic importance and economic advantages of transitioning from National Accounting Standards (NAS) to International Financial Reporting Standards (IFRS) in the context of Uzbekistan's economic modernization. The study applies a comparative analysis method, examining the conceptual differences between NAS and IFRS, particularly issues related to fair value measurement of assets and ensuring financial transparency. The experience of South Korea's transition to the K-IFRS system is also reviewed, with an assessment of its impact on the stock market and investment flows.*

Keywords: *NAS, IFRS, transformation, integration, transparency, fair value, investment, capital market, K-IFRS, comparative analysis, financial reporting, methodology.*

Kirish.

Hozirgi global iqtisodiy integratsiya jarayonlarida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga moslashuvi muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, xususan "O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida milliy iqtisodiyotning investitsion jozibadorligini oshirish va xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuvi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BXMS)dan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ga o'tish jarayoni dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. MHXSga o'tish korxonalarining moliyaviy hisobotlarini yanada shaffof, ishonchli va xalqaro miqyosda taqqoslanadigan qilish imkonini beradi.

Adabiyotlar sharhi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS/IFRS) o'tish masalasi xalqaro iqtisodiy integratsiya va kapital bozorlarining globallashuvi sharoitida ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. Xalqaro ilmiy adabiyotlarda MHXSni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi, moliyaviy hisobot sifati va investorlar ishonchiga ta'siri keng o'rganilgan.

Xususan, Ball (2006) MHXSni joriy etish moliyaviy axborotlarning shaffofligini oshirishi, investorlar uchun axborot assimetriyasini kamaytirishi hamda xalqaro kapital bozorlarida kompaniyalar qiymatini aniqroq baholash imkonini yaratishini ta'kidlaydi. Muallifning fikricha, IFRS tizimi iqtisodiy mazmunning huquqiy shakldan ustunligini ta'minlaydi va bu kapital bozorlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi (Ball, 2006).

Barth, Landsman va Lang (2008) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa MHXSni qo'llayotgan kompaniyalarda foyda manipulyatsiyasi darajasi pasaygani, moliyaviy hisobot sifati oshgani hamda kompaniyalarning bozor qiymati va investitsion jozibadorligi yaxshilangani empirik jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqotchilar IFRS standartlari moliyaviy natijalarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkoniyatini kengaytirishini qayd etadilar (Barth, Landsman & Lang, 2008).

Shuningdek, xalqaro tadqiqotlarda MHXSga o'tishning kapital bozori rivojiga ta'siri ham muhim ilmiy yo'nalish sifatida ko'riladi. Korea Exchange (2015) statistik ma'lumotlariga ko'ra, Janubiy Koreyada K-IFRS joriy etilgandan so'ng xorijiy investorlar faolligi oshgan va "Koreya diskonti" fenomeni qisqargan. IMF Country Report (2012) ma'lumotlari ham MHXS asosidagi moliyaviy shaffoflik xalqaro investitsiya oqimlarining ko'payishiga xizmat qilganini tasdiqlaydi.

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ham MHXSga o'tishning institutsional va metodologik jihatlari o'rganilgan. Jumladan, Xasanov (2021) MHXSni joriy etish jarayonida buxgalteriya hisobi tizimini transformatsiya qilish va moliyaviy hisobotlar shaffofligini oshirish masalalariga e'tibor qaratadi. Abduvaxidov (2020) o'z tadqiqotlarida xalqaro standartlarga o'tishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini hamda korxonalarda MHXSni amaliy qo'llash muammolarini tahlil qilgan. Qo'ziyev (2022) esa buxgalteriya hisobi tizimida xalqaro standartlarni joriy etishda kadrlar salohiyati va metodik ta'minotning ahamiyatini asoslab beradi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasida MHXSni joriy etishning normativ-huquqiy asoslari ham ilmiy tadqiqotlarda alohida o'rin egallaydi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni (O'RQ-404, 2016) hamda Prezidentning PQ-4611-son qarori (2020) asosida moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga moslashtirishning tashkiliy mexanizmlari shakllantirilgan.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, MHXSga o'tish nafaqat texnik hisob standartlarini almashtirish, balki moliyaviy boshqaruv, korporativ shaffoflik va investitsion muhitni takomillashtirishga qaratilgan institutsional transformatsiya jarayonidir. Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlarda MHXSni iqtisodiyot tarmoqlari kesimida differensial tarzda joriy etish, ayniqsa agrosanoat majmuasi va kichik biznes subyektlariga moslashtirish masalalari yetarli darajada chuqur tadqiq etilmagan.

Mazkur ilmiy bo'shliq ushbu tadqiqotning asosiy yo'nalishini belgilab beradi va O'zbekiston sharoitida Janubiy Koreya tajribasi asosida MHXSni bosqichma-bosqich hamda tarmoqlar xususiyatidan kelib chiqib joriy etishning iqtisodiy samaradorligini baholash zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot maqsadiga erishish uchun bir qator ilmiy usullar kompleks tarzda qo'llanildi. Tizimli yondashuv orqali O'zbekiston buxgalteriya hisobi tizimi MHXS talablari bilan institutsional jihatdan yaxlit tizim sifatida tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil yordamida BXMS va MHXS o'rtasidagi asosiy konseptual farqlar, jumladan aktivlarni baholash (historical cost va fair value) hamda daromadlarni tan olish tamoyillari o'rganildi.

Normativ-huquqiy tahlil doirasida O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni (O'zbekiston Respublikasi, 2016) hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli "Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori talablari MHXS standartlari bilan qiyosiy asosda tahlil qilindi (O'zbekiston Respublikasi, 2020). Statistik tahlil esa Janubiy Koreyada K-IFRS joriy etilgandan keyingi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va investitsion oqimlar dinamikasini o'rganishga qaratildi.

Shuningdek, deduktiv yondashuv asosida xalqaro tajriba, xususan Janubiy Koreya modeli orqali O'zbekiston sharoitida, ayniqsa agrosanoat va kichik biznes sektorlarida MHXSni qo'llash imkoniyatlari baholanadi. Analitik yondashuv esa MHXSga o'tish va investitsion jozibadorlik o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqligini aniqlashga xizmat qildi.

Tadqiqotda quyidagi asosiy iqtisodiy model qo'llanildi (Ball, 2006):

$$I = \alpha T + \beta A + \gamma FV$$

Bu yerda:

I – investitsion jozibadorlik

T – moliyaviy hisobotlarning shaffofligi (transparency)

A – buxgalteriya hisobi sifati (accounting quality)

FV – fair value tamoyilining qo'llanilishi

α , β , γ – har bir omilning ta'sir darajasini ifodalovchi koeffitsiyentlar

Mazkur model MHXSga o'tish jarayonida moliyaviy hisobot sifati va baholash tamoyillari orqali investitsion muhitga ta'sir mexanizmini soddalashtirilgan iqtisodiy shaklni ifodalaydi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Janubiy Koreyaning K-IFRS tizimiga o'tish tajribasi shuni ko'rsatadiki, MHXSga transformatsiya nafaqat buxgalteriya hisobi tizimining institutsional qayta shakllanishiga, balki mamlakatning xalqaro kapital bozoridagi pozitsiyasining sezilarli darajada o'zgarishiga ham olib keladi. Koreya amaliyotida kuzatilgan "shaffoflik effekti" moliyaviy axborot sifati oshishi, axborot assimetriyasining kamayishi hamda investorlar ishonchining kuchayishi orqali kapital bozorining samaradorligini oshirgan. Ushbu natijalar MHXSga o'tishning iqtisodiy modernizatsiyadagi strategik ahamiyatini asoslaydi.

Shu nuqtayi nazardan, Koreya tajribasi O'zbekiston uchun muhim amaliy yo'nalishlarni ochib beradi. Birinchidan, "Koreya diskonti" fenomenining qisqarishi MHXS joriy etilishi natijasida kompaniyalar bozor qiymati real iqtisodiy qiymatga yaqinlashganini ko'rsatadi. O'zbekistonda davlat ulushi yuqori bo'lgan yirik korxonalar, jumladan Navoiy KMK va OKMK uchun MHXSga to'liq o'tish xalqaro IPO va global investitsiyalarni jalb etishning muhim institutsional sharti hisoblanadi. Shu bilan birga, Koreya tajribasi shuni ko'rsatadiki, bu jarayon bir zumda emas, balki bosqichma-bosqich rivojlanadigan transformatsion jarayondir.

Ikkinchidan, Koreyada SME sektoriga nisbatan bosqichma-bosqich implementatsiya strategiyasi qo'llanilgan bo'lib, bu moliyaviy yuklamani kamaytirgan va moslashuv samaradorligini oshirgan. O'zbekiston iqtisodiyotida ham shunga o'xshash yondashuv zarur bo'lib, agrosanoat majmuasi, fermer xo'jaliklari va kichik tadbirkorlik subyektlari uchun MHXSning soddalashtirilgan shakllarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, MHXSga o'tish jarayonida inson kapitali va raqamli infratuzilma muhim rol o'ynaydi. Koreya tajribasida buxgalteriya mutaxassislarini qayta tayyorlash davlat va professional institutlar hamkorligida amalga oshirilgan bo'lib, bu transformatsiyaning institutsional barqarorligini ta'minlagan. O'zbekistonda esa buxgalteriya dasturlarini MHXS talablariga moslashtirish, jumladan 1C tizimini modernizatsiya qilish hamda oliy ta'limda chuqurlashtirilgan akademik tayyorgarlikni kuchaytirish zarur.

Mavjud cheklovlar tahlili shuni ko'rsatadiki, asosiy institutsional to'siqlardan biri soliq hisobi va moliyaviy hisobot tizimi o'rtasidagi normativ nomuvofiqlikdir. Koreya tajribasida ushbu muammo fiskal tizimni MHXS tamoyillariga yaqinlashtirish orqali yumshatilgan. Shu tajribadan kelib chiqib, O'zbekiston sharoitida ham avval yirik korxonalar darajasida MHXS integratsiyasi kuchaytirilsa, keyinchalik soliq tizimi bilan uyg'unlashtirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilishi mumkin. Natijada dual hisob yuritish amaliyoti kamayadi va normativ-huquqiy baza xalqaro standartlar bilan uyg'unlashadi.

Tadqiqot doirasida o'tkazilgan kompleks tahlillar Janubiy Koreya tajribasining ijobiy samaradorligini hamda O'zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o'tish jarayonining amaldagi holatini atroflicha yoritib berdi. Olingan natijalar quyidagi muhim yo'nalishlar bo'yicha tizimlashtirildi:

1. Janubiy Koreya moliya bozoridagi transformatsiya ko'rsatkichlari:

→ K-IFRS joriy etilishi Koreya kapital bozorining investitsion jozibadorligini sezilarli darajada oshirdi.

→ 2011–2015 yillarda xorijiy investorlar ishtiroki 6,5–7,2% ga o'sgan (IMF, 2012).

→ "Koreya diskonti" fenomeni sezilarli darajada qisqardi.

→ Kompaniyalar aksiyalari narxi real iqtisodiy qiymatga yaqinlashdi.

→ Kapital bozorining global integratsiyasi tezlashdi.

MHXSga o'tish Koreya moliya bozorida shaffoflik va qiymat aniqligini oshirgan asosiy institutsional omil bo'lib kelmoqda.

2. BXMS va MHXS o'rtasidagi konseptual farqlarning moliyaviy natijalarga ta'siri

BXMS va MHXS standartlarining qiyosiy tahlili

Mezonlar	BXMS (Milliy standartlar)	MHXS (Xalqaro standartlar)
Asosiy maqsad	Soliq hisoboti va nazorat organlari uchun ma'lumot tayyorlash.	Investorlar va kreditorlar uchun iqtisodiy qaror qabul qilishda ko'maklashish.
Aktivlarni baholash	Tarixiy tannarx (Historical cost) tamoyili ustuvor.	Haqqoniy qiymat (Fair value) tamoyili ustuvor.
Asosiy yondashuv	Qat'iy qoidalar va yuridik shaklga (hujjatga) asoslanadi.	Iqtisodiy mazmunning shakldan ustunligi tamoyili (mohiyat muhim).
Shaffoflik darajasi	Cheklangan (asosan tasdiqlangan standart shakllar).	Yuqori (kengaytirilgan izohlar va batafsil ochib berishlar).

Manba: Ball, R. (2006). IFRS: An economic assessment. *Journal of Accounting and Economics*, 42(1-2), 5-27 ma'lumotlari asosida mualliftomonidan tuzilgan.

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, MHXSga o'tish jarayoni korxonaning moliyaviy ekotizimida quyidagi analitik bog'liqlik zanjirini hosil qiladi (Ball, 2006):

MHXS joriy etilishi → moliyaviy shaffoflik oshishi → investor ishonchi ortishi
→ investitsiya oqimi ko'payishi.

Ushbu empirik model MHXSning nafaqat hisob-kitob tizimi, balki korxonaning investitsiyaviy jozibadorligini oshiruvchi strategik vosita ekanligini isbotlaydi.

Bog'liqlikni quyidagi investitsiya jozibadorligining integrallashgan modeli orqali ifodalash mumkin:

$$F_{inv} = f(Tr, Ac, Bo) \text{ (Ball, 2006):}$$

Bu yerda:

F_{inv} — korxonaning investitsiyaviy jozibadorligi;

Tr — shaffoflik darajasi (Transparency);

Ac — ma'lumotlarning aniqligi (Accuracy);

Bo — bozor qiymatiga moslik (Fair Value).

MHXSga o'tish O'zbekistonning yirik korxonalari (masalan, Navoiy kon-metallurgiya kombinati va "O'zavtosanoat" AJ) uchun xalqaro moliya bozorlariga chiqish imkonini berdi. MHXS asosida audit qilingan hisobotlar tufayli ushbu korxonalar xalqaro kredit liniyalarini 5-8% stavkada jalb qilishga muvaffaq bo'ldi, bu esa mahalliy banklardagi kredit foizlaridan sezilarli darajada pastdir (IMF, n.d). Bu esa o'z navbatida korxonaning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshiradi.

Buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BXMS) va MHXS o'rtasidagi konseptual farqlar korxonalarining moliyaviy hisobot ko'rsatkichlariga va balans barqarorligiga bevosita ta'sir qilishini ko'rsatadi. O'zbekistondagi yirik davlat korxonalari — Navoiy kon-metallurgiya kombinati (NKMK) va "O'zavtosanoat" AJ amaliyoti alohida tahlil qilindi. Ushbu korxonalar MHXSga bosqichma-bosqich o'tish jarayonida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga moslashtirilishi orqali tashqi moliya bozorlari oldida ishonchlilik darajasini oshirgan.

MHXS asosida tayyorlangan va audit qilingan hisobotlar natijasida ushbu korxonalar xalqaro moliya institutlari hamda investorlari tomonidan nisbatan yuqori baholanishga erishgan. Bu holat ularning xorijiy moliyaviy resurslarga chiqish imkoniyatini kengaytirgan va kredit shartlarining yanada qulaylashishiga xizmat qilgan (Barth, Landsman, & Lang, 2008).

Shu bilan birga, MHXSga moslashuv jarayoni korxonalarda moliyaviy axborot shaffofligini oshirdi hamda ichki hisobot tizimining sifatini yaxshilashga erishildi. Natijada, ushbu

korxonalar xalqaro reyting agentliklari tomonidan baholanish jarayonida ijobiy deya baholangan.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilishimiz mumkinki, MHXSga o'tish kapital bozorining globallashtirishini tezlashtiradi va investitsiya jozibadorligini oshiradi. Bu O'zbekistonda investitsiya oqimini sezilarli darajada ko'paytirish imkonini beradi. MHXSni joriy etishda malakali kadrlar hal qiluvchi omil hisoblanib, ta'lim tizimini xalqaro sertifikatlar bilan uyg'unlashtirish va raqamli infratuzilmani rivojlantirishiga xizmat qiladi. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o'tish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish nafaqat ichki buxgalteriya tizimini takomillashtirishga, balki biznes uchun yanada raqobatbardosh muhit yaratishga, xorijiy investorlarni jalb qilishga va O'zbekiston iqtisodiyotiga ishonchni mustahkamlashga ham hissa qo'shadi. Ushbu islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mahalliy korxonalar uchun yangi ufqlarni ochadi, ularga global kapital bozorlariga kirish va xalqaro hamkorlikni ta'minlaydi.

MHXSga o'tish shunchaki texnik jarayon emas, balki "O'zbekiston-2030" strategiyasida belgilangan iqtisodiy barqarorlik va global integratsiya maqsadlariga erishishning institutsional poydevoridir.

Adabiyotlar / Jumepamypa / Reference:

Abduvaxidov, A. (2020) *Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o'tishning tashkiliy asoslari*. Toshkent: Fan va texnologiya.

Ball, R. (2006) 'IFRS: An economic assessment', *Journal of Accounting and Economics*, 42(1-2), pp. 5-27.

Barth, M.E., Landsman, W.R. and Lang, M.H. (2008) 'International Accounting Standards and Accounting Quality', *Journal of Accounting Research*, 46(3), pp. 467-498.

Hasanov, B. (2021) *Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.

IMF (2012) *IMF Country Report: Republic of Korea*. Washington DC: International Monetary Fund.

Korea Exchange (2015) *KRX Statistical Yearbook 2015*. Seoul: Korea Exchange.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori (2020) 'Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida', PQ-4611-son, 24-fevral. Mavjud: <https://lex.uz/docs/4746047>

O'zbekiston Respublikasi Qonuni (2016) 'Buxgalteriya hisobi to'g'risida', O'RQ-404-son, 13-aprel. Mavjud: <https://lex.uz/uz/docs/2931253>

Qo'ziyev, I. (2022) *MHXS asosida moliyaviy hisobotlarni shakllantirish metodologiyasi*. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti.